



## THE EXPRESSION OF CRIMINAL TERMS IN THE UZBEK TRANSLATION OF THE NOVEL «تهران مخوف»

**Zarifa Mukhtorova**

*1st-year student*

*Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

**M.R. Khabibova**

*Senior Lecturer at the Higher School of Iranian Studies and Afghan Studies, TSUOS*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** comparative method, adequate translation, contextual translation, polysemic, dominant meaning, equivalent, synonymic relation, jargon, semantic consistency.

**Abstract:** This paper presents a comparative analysis of criminal vocabulary and idioms used in the Uzbek translation of Murtaza Mushfiq Kazimi's novel *The Terrible Tehran*.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

### «تهران مخوف» ROMANI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA KRIMINAL TERMINLARNING IFODALANISHI

**Zarifa Muxtorova**

*1-bosqich talabasi*

*"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**M.R. Xabibova**

*TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** qiyosiy metod, adekvat tarjima, kontekstual tarjima, polisemik, dominant ma'no, ekvivalent, sinonimik munosabat, jargon, semantik moslik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Murtaza Mushfiq Kozimiyning «تهران مخوف» romanining o'zbekcha tarjimasida qo'llanilgan kriminal so'zlar va iboralar qiyosiy tahlil qilinadi.

**ВЫРАЖЕНИЕ КРИМИНАЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ  
РОМАНА «تهران مخوف»****Зарифа Мухторова***Студентка 1 курса**Высшая школа иранистики и афганистики**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***М.Р. Хабибова***Старший преподаватель**Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ**Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** сравнительный метод, адекватный перевод, контекстуальный перевод, полисемичный, доминантное значение, эквивалент, синонимические отношения, жаргон, семантическое соответствие.

**Аннотация:** В данной работе проводится сравнительный анализ криминальной лексики и фразеологии, использованных в узбекском переводе романа Муртазо Мушфики Козими «Страшный Тегеран».

---

**Kirish.** Jahon adabiyoti namunalarini milliy tillarga tarjima qilish nafaqat adabiy, balki lingvistik va madaniy jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy muhit, jamiyatning maishiy hayoti va kriminal voqeliklarini aks ettiruvchi asarlarni tarjima qilish tarjimondan nafaqat tilni mukammal bilishni, balki tarixiy va madaniy kontekstni ham chuqur anglashni talab qiladi. Bunday asarlarda qo‘llanilgan leksik birliklar, xususan, kriminal terminlar asarning mazmunini ochishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayonida semantik aniqlik va uslubiy moslikni saqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Eron adabiyotida muhim o‘rin tutgan Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Tehroni maxuf” romani XX asr boshlaridagi Tehron jamiyatining ijtimoiy va siyosiy hayotini realistik ruhda aks ettirgan ilk ijtimoiy romanlardan biri hisoblanadi. Asarda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, korrupsiya, jinoyatchilik va hukumat tizimidagi muammolar badiiy tarzda tasvirlangan. Shu sababli roman tilida kriminal muhitga xos bo‘lgan leksik birliklar, jargonlar, huquqiy atamalar va turli ijtimoiy qatlam vakillarini ifodalovchi terminlar keng qo‘llanilgan.

Ma’lumki, har bir tildagi kriminal terminologiya muayyan ijtimoiy-huquqiy tizim va madaniy muhit bilan bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois bir tilda mavjud bo‘lgan ayrim tushunchalar boshqa tilda to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu holat tarjimada semantik moslik, ekvivalentlik va ba’zan leksik bo’shliq (lexical gap) muammolarini keltirib chiqaradi. Bunday hollarda tarjimon kontekstual tarjima, izohli tarjima yoki semantik jihatdan yaqin birliklardan foydalanishga majbur bo‘ladi.

“Tehroni maxuf” asarining o‘zbek tiliga tarjimasini mashhur adib va tarjimon G‘afur G‘ulom tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u asarning badiiy va uslubiy xususiyatlarini saqlagan holda uni o‘zbek kitobxoniga yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniqsa, asarda uchraydigan kriminal terminlar, jinoiy harakatlar, jinoyatchilarni ifodalovchi nomlar va jinoyat sodir etiladigan joylarga oid atamalarning tarjima qilinishi tarjimonning mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur maqolada Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Tehroni maxuf” romanida uchraydigan kriminal terminlar hamda ularning o‘zbekcha tarjimasini qiyosiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu terminlarning semantik xususiyatlari, tarjima usullari hamda ularning matndagi funksional ahamiyati o‘rganiladi. Bu esa asar tarjimasida kriminal terminologiyaning ifodalanish usullarini aniqlash va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Asarda keltirilgan atamalar va ularning tarjimasini 5 ta guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Jinoyat turlari va ijtimoiy illatlar. Asarda kelgan سرقت va دزدی [86, 2-b.] so‘zlari o‘zbek tiliga “o‘g‘rilik” [1, 69-b.] deb tarjima qilingan. Tarjimon forscha matndagi دورویی و تزویر [424, 2-b.] so‘zlarini o‘zbekchaga “munofiqlik va yolg‘onchilik” [1, 263-b.] deb tarjima qilgan. Yana تملق گویی [2, 151-b.] so‘zi o‘zbek tiliga “boshqalarning laganlarini yalashni o‘zlariga faxr deb biladiganlar” [1, 114-b.] deb tarjima qilinganini va bu adekvat tarjima juda ham o‘rinli bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

2. Kriminal shaxslar va sifatleri. Romanda هرزه [274, 2-b.] degan so‘z o‘zbekcha matnda “sayoq” [1, 183-b.] ko‘rinishida uchraydi. Asl matndagi ارادل و اوباش [276, 2-b.] so‘zlari va o‘zbekcha tarjimadagi “ig‘vogar va munofiqlar” [1, 184-b.] so‘zlari o‘zaro kontekstual ma‘no hosil qilgan. Asarda kelgan لوطیان so‘zi [2, 277-b.] tarjimada “chapanilar” [1, 185-b.] so‘zi bilan almashtirilgan. G‘afur G‘ulom forscha matndagi فزاق [121, 2-b.] so‘zini “kazak” [1, 97-b.] deb tarjima qilgan. Bu so‘z bir necha ma‘noga ega bo‘lib, matnda aynan asar voqealari kechayotgan davrda Eron armiyasining asosini tashkil etgan harbiy- ijtimoiy tabaqa - Kazak brigadasiga mansub odam nazarda tutilgan. Murtazo Mushfiq Kozimiy o‘z asarida دژخیمان [323, 2-b.] so‘zini ishlatadi, ammo bu so‘z G‘afur G‘ulom tarafidan o‘z ma‘nosida tarjima qilinmagan, balki kontekstual tarjimadan foydalanilgan. Aslida bu so‘z “jallodlar” degan ma‘noni beradi.

3. Kriminal holat, harakat va faoliyatlar. Asl matnda از میان بردن [5, 2-b.] degan terminni uchratishimiz mumkin, G‘afur G‘ulom bu fe‘lni “tunab ketmoq” [1, 5-b.] deb tarjima qilgan. Lekin biz bu atamani “yo‘q qilish” deb tarjima qilsak, ham so‘zni dominant ma‘nosida ishlatgan bo‘lamiz, ham matn mazmuniga uyg‘un bo‘ladi. Asarning keyingi sahifalarida کسی گذاشتن [50, 2-b.] iborasi ko‘zga tashlanadi. O‘zbekcha matnda bu iborani aynan emas, ekvivalenti - “cho‘ntakka urib qolish” [1, 40-b.] iborasi bilan ifodalash tarjimonning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Forscha matnda kelgan مجازات تازیانه [323, 2-b.] birikmasi tilimizga “darralash jazosi” [1, 211-b.] deb o‘girilgan bo‘lsa, kelgusi sahifalarda uchraydigan شلاق [427, 2-b.] (darra) [1, 265-b.] so‘zi esa birikmaning ikkinchi (تازیانه) qismi bilan sinonimik munosabat tashkil qiladi. Tarjimon 2[هرج ومرج

399-b.] atamasini o‘zbekchaga “ayanch ahvol” [1, 251-b.] deb o‘giran. Bu termini “tartibsizlik” deb tarjima qilsak bo‘ladi. Boshqa tarafdin bu birikmani xoh ijtimoiy ma’noda “g‘alayon”, xoh siyosiy ma’noda “anarxiya” deb tarjima qilsak ham voqealar sodir bo‘layotgan davrdagi vaziyatga ko‘ra xato bo‘lmaydi. Asardagi شليك کردن [278, 2-b.] fe‘li o‘zbek tiliga “o‘q uzish” [1, 185-b.] deb tarjima qilingan. Romanda ishlatilgan روبودن [182, 2-b.] fe‘li kontekstual ma’noga mos ravishda o‘zbek tiliga “olib qochmoq” [1, 134-b.] deb o‘girilgan.

4. Jinoiy joylar. Kozimiy asarida پاتوق [6, 2-b.] degan jargon atamani ishlatgan, bu so‘z “boshpana” [1, 2-b.] deb tarjima qilingan. “Avaxta”, “qamoqxona”, “zindon” deb tarjima qilingan so‘zlar asl matnda زندان [427, 2-b.], محبس [324, 2-b.], دخمه [334, 2-b.] tarzida uchraydi. Romanda kelgan نمره يك [334, 2-b.] birikmasi G‘afur G‘ulom tomonidan “yakkaxona” [1, 217-b.] deb tarjima qilingan. Hozirda bu so‘zga qaraganda “bir kishilik kamera” birikmasidan ko‘proq foydalanamiz. Tarjimon forsiy nusxadagi نظميہ [323, 2-b.] so‘zini o‘zlashtirib, matnida “nazmiya” [1, 210-b.] deb tarjima qilgan. Biz esa bu atamani yanada tushunarli bo‘lishi uchun “politsiya mahkamasi” deb tarjima qilishimiz mumkin.

5. Jinoiy predmetlar. Romanda bir obraz كارد [122, 2-b.] orqali yaralanadi, tarjimada bu so‘z “qilich” [1, 97-b.] ga aylangan. Biroq bu terminlar to‘liq semantik moslikka ega emas, ya‘ni كارد ning faqat “pichoq” degan ma‘nosi bor. Asarda گلوله هفت تير [121, 2-b.] birikmasi kelgan, bu so‘z birikmasi o‘zbekchaga “to‘pponchaning o‘qi” [1, 97-b.] deb o‘girilgan.

**Xulosa.** Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Tehroni maxuf” romanida qo‘llanilgan kriminal terminologiyani o‘rganish jarayonida umumiy 50 tadan oshiq kriminal terminologiyaga oid so‘z topildi, shundan 26 tasi mazkur maqolada qo‘llanildi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Tehroni maxuf” romanida qo‘llanilgan kriminal terminologiya asarning mazmuniy va stilistik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu terminlar asarda tasvirlangan davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini, jamiyatdagi jinoyatchilik holatini hamda turli ijtimoiy qatlam vakillarining hayot tarzini aks ettirishga xizmat qiladi.

Asarning G‘afur G‘ulom tomonidan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimon ko‘plab kriminal terminlarni o‘zbek tiliga adekvat va semantik jihatdan mos tarzda tarjima qilishga muvaffaq bo‘lgan. Ayrim hollarda esa terminlarning to‘liq ekvivalentlari mavjud bo‘lmaganligi sababli kontekstual tarjima usulidan foydalanilgan. Bu holat turli tillarning leksik va semantik tizimidagi farqlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida kriminal terminlar mazmuniga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratildi: jinoyat turlari, kriminal shaxslar, jinoiy harakatlar, jinoiy joylar hamda jinoiy predmetlar. Ushbu tasnif asarda qo‘llanilgan kriminal terminologiyaning tizimli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ayrim terminlarning tarjimasida semantik farqlar yoki qisman mos kelmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlar asosan polisemantik soʻzlar yoki muayyan madaniy muhitga xos tushunchalar bilan bogʻliqdir. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilish jarayonida kontekstni toʻgʻri anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, “Tehroni maxuf” romanining oʻzbekcha tarjimasida kriminal terminologiya asosan semantik moslik asosida berilgan boʻlib, asarning badiiy va mazmuniy xususiyatlari muvaffaqiyatli saqlangan. Mazkur tadqiqot natijalari kriminal terminologiyani qiyosiy oʻrganish hamda badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida semantik moslikni taʼminlash masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot shuni koʻrsatadiki, Murtazo Mushfiq Kozimiyning “Qoʻrqinchli Tehron” romanidagi terminologik qatlam oʻz davrini toʻla aks ettiruvchi soʻzlarni ishlatishi til oʻrganuvchilarga asarni yanada tushunishga yordam beruvchi xususiyatga ega. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, maqoladagi kriminal atamalarning deyarli hammasi oʻz maʼnosiga koʻra tarjima qilingan, roman tarjimasiga milliy boʻyoq aralashtirilmagan. Baʼzi joylardagi soʻzlar adekvat tarjima qilingani uchun asl matndagi mazmundan ham muvaffaqiyatli chiqqan. Asarda ham, tarjimasida ham sinonimlardan keng ravishda foydalanilgan. Romanning sodda tili tarjimada ham saqlangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mushfiq Murtazo Kozimiy. Qoʻrqinchli Tehron. (Tarjimon: Gʻ. Gʻulom).- T.,: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 1990- 543 b.
2. مرتضى مشفق كاظمى. - تهران، ۱۹۲۴-۴۷۳ ص.
3. mobil ilovasi. 1.0- versiya.- Limoo.- Android platformasi.
4. Diloram Ismoilova.Criminal terminology in english and uzbek languages., American Journal of Philological Sciences(ISSN – 2771-2273) March 31,2023
5. Khabibova Mukhabbat Raxmetullayevna.Simultaneous Transfer Strategies and Their Description. Journal of Critical Reviews, (Issue 4 2394-5125)
6. Khabibova Mukhabbat Raxmetullayevna. Use of Multimedia Methods in Teaching Foreign Languages.Ln; Distance Opportunities and Achievements of Science.Collection of Scientific Publications.Kiyev,2020
7. Khodiyeva, Nozima T., Khabibova, Mukhabbat R., & Ahmedova, Dilfuza R. (2021). Past Tense Incomplete Verb and Present Tense Incomplete Verb in Persian. Zenodo, May 26, 2021. DOI: 10.5281/zenodo.4810048.
8. Ahmedova, Dilfuza R., Khodiyeva, Nozima T., & Khabibova, Mukhabbat R. (2022). Semantic Analysis of Stative Verbs in the Persian Language. In: Culturology, Art Studies and Philology: Modern Views and Scientific Research. Proceedings of the LVI International Scientific-Practical Conference. Moscow, 2022. ISSN 2541-9870.

9. Khodiyeva, N. T., Ahmedova, D. R., & Khabibova, M. R. (Year not specified). Structural Analysis of Verbs Formed on the Basis of Verb Stems in Modern Persian. *Oriental Renaissance Innovative Educational Natural and Social Sciences*, Volume 2, Issue 4/2.